

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rganishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetensiya bo'lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalari kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili .....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish shartitida o'quvchi-talabalarni noxiziq fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish.....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	223



UO'K:37.018.1+372.890.821

**O'G'IL BOLA TARBIYASI VA OILAVIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARINING TARIXI****ИСТОРИЯ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ  
МАЛЬЧИКОВ****THE HISTORY OF TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND FAMILY  
RELATIONS OF BOYS****Aripov Shokirjon Olimovich**

Farg'ona davlat universiteti, p.f.b.f.d (PhD) pedagogika kafedrası o'qituvchisi

**Annotasiya**

*Ushbu maqolada Tarixiy-falsafiy shart-sharoitlar natijasida oila institutini paydo bo'lishi va unda oilaviy munosabatlarni shakllanishining ijtimoiy tizimi sifatida oila instituti atamasini atroflicha tahlil qilingan. Oila va oilaviy munosabatlarni rivojlanishining tarixiy va falsafiy shart-sharoitlari hamda o'g'il bolalarda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni paydo bo'lish bosqichlari yoritib berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье, исходя из историко-философских условий, мы подробно проанализировали термин институт семьи как социальную систему формирования семейных отношений и возникновения института семьи. Мы проследили историко-философские условия развития семьи и семейных отношений, а также этапы становления ценностных отношений с семьей у мальчиков.*

**Abstract**

*In this article, based on historical and philosophical conditions, we have analyzed in detail the term institution of the family as a social system for the formation of family relations and the emergence of the institution of the family. We have traced the historical and philosophical conditions of the development of family and family relations, as well as the stages of the formation of value relations with the family in boys*

**Kalit so'zlar:** Tarix, falsafa, shart-sharoitlar, oila instituti, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy tizim, o'g'il bolalar, qadriyatlar.

**Ключевые слова:** История, философия, условия, институт семьи, семейные отношения, социальный строй, мальчики, ценности.

**Keys words:** History, philosophy, conditions, family institution, family relations, social system, boys, values.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas.

Hozirgi davrda jamiyatdagi yangilanishlar kishilarning turmush tarzida ham o'zgarishlar yasamoqda. Hayotda nikohlarning buzilishi kabi salbiy holatlar yuz bermoqda. Bular, odatda, oila yuritishga ham moddiy, ham ma'naviy tayyor emaslik, pedagogik-psixologik savodsizlik, oila xo'jaligini yuritish malakasiga ega bo'lmaslik, yosh oilalarning ota-onaga qaram bo'lib turishi, ma'naviy qashshoqlik sababli paydo bo'lmoqda. Ana shu sharoitlar tufayli umumta'lim maktablaridan o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruriyati paydo bo'ldi.

Qadimgi vaqtlardan oila ijtimoiy institutini shakllanishi va rivojlanishi haqida fan tarixi guvohlik berib, unda oila an'analarini o'rganish ko'p ming yillik tarixga, xususan, Konfutsiy, Gerodot, Aflotun, Arastu va boshqalarga borib taqaladi. Oila jamoatchilik instituti sifatida jamiyatning paydo bo'lish jarayonida vujudga keldi. Oila tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi qadriyatlarni mustahkamlash orqali aniqlanib, ular: oila a'zolari rioya qiluvchi me'yorlar, ota-ona va bolalar, ta'lim-tarbiya, ularni amalga oshirishdagi mas'uliyatlilik hissi va

shu kabilardir. Mazkur qadriyatlar o'zini tuta bilish qoidalari, javobgarlik hissi, erkak va ayol kabi subyektlar o'rtasidagi vaqt o'tishi davri bilan ma'lum bir shaklni namoyon etadi. Ushbu qadriyatlar oilada huquq va majburiyatlarni taqsimlanishi va tartiblashtirishga imkon bergan. Jamiyat rivojining daslabki bosqichlarida, bunday munosabatlar urf-odat (qabila, urug'), o'zida axloqiy qoidalarni namoyon etib, diniy qoidalarga asoslanish orqali nazorat qilingan.

Davlatchilikni paydo bo'lishi natijasida oilaviy hayot to'g'ri yo'nalishga qaratildi. Qabila kattarishi hisobiga, xuquqiy-davlat tashkilotini shakllantirish zarurati paydo bo'ldi. Oila boshliqlari qabila kengashiga qo'shila boshlashadi, qabilalar esa boshqa qabilalar bilan ittifoqchilik aloqalarini o'rnata boshladilar. Shu bilan birga, aynan, oila barcha jamiyat institutlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Oila rivojlanishi orqali jamiyatning yaxlit rivojlanishini kuzatishimiz mumkin. Qadimgi faylasuflar jamiyat munosabatlarini oilaviy munosabatlardan ajratib, oila bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga alohida e'tibor qaratishadi. O'sib-ulg'ayayotgan inson ma'naviy qadriyatlarining rivojlanish jarayonida ustoz(o'qituvchi)ning o'rniga katta ahamiyat beriladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qadimgi faylasuflar oila tabiati va mohiyatini turlicha tushunganlar. Xususan, Aflotun qarashlariga e'tibor beradigan bo'lsak, u oilani "ezgulik" deb baholab, u ikkita bo'lingan qismlarni – erkak va ayolni yaxlit bittaga birlashgan afsonaviy mavjudot (androgin) deb atagan. Aflotunning fikricha, "har birimiz – insonning ikki qismga ajratilgan qismlarimiz", shu sababli ham har bir kishi unga to'g'ri keladigan o'zining juftini izlaydi. "Kimgadir hech bo'lmaganda bir marotaba o'zining yarimini uchratish holati yuz bersa, ularning ikkalasida ham ajib his bir-biriga keraklik tuyg'usi paydo bo'ladi, qandaydir unchalik uzoq bo'lmagan davrda ayriliqning bo'lishligi xush kelmaydigan holat. Birga yashashlari, bu insonlar bir-birlaridan nimani xohlashlarini anglaydilar, degani emas... Bunga asos – dastlab bizning tabiatimiz bo'lgan va biz qandaydir yaxlitlikni tashkil etganmiz".

Aflotun qadimda paydo bo'lgan oilani boshlang'ich ijtimoiy "yacheyka" (bo'lak) deb hisoblagan, shu bilan birga, davlat oilalarning birlashuvi natijasida paydo bo'lishi mumkin, deb qaragan. Ammo faylasuf qarashlarida izchillik kuzatilmaydi. "Ideal davlatda" jamiyat jipsligiga erishish uchun u ayollar, bolalar va mol-dunyoni umumiylik, – deb qarashni taklif etgan. Aflotun jangchida oila, bolalari va xususiy mulki bo'lmasa, u Vatan uchun jonini qurbon qilishi mumkin, deb hisoblagan. Aflotun bolalar tarbiyasida pedagog uchun muhim o'rin ajratgan. Uning tarbiya – bolalik davrida amalga oshiriladi deb qarash kerak emas, tarbiya bola dunyoga kelganidan boshlanib, hayotning oxirigacha davom etadi, – degan fikrlariga asos bor.

Bola uchun ona – boquvchi, qarovchi, ota – pedagog. O'qish qobiliyatini paydo bo'lishi va uning asosida nima yozilganini tahlil qilish natijasida tarbiyani anglash mumkinligini Aflotun isbotlab beradi. Aynan shu davrda bolani buyuk shoirlar asarlarini o'rganishiga jalb etish zarur, – deydi.

Endi Arastuning asarlari va uning mulohazalariga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, uningcha "har bir davlat alohida oilalar yig'indisidan yaratadi". Arastu o'z diqqatini hayot mobaynida o'g'il bolalar va ularning ota-onalari o'rtasida amalga oshadigan his-tuyg'ulariga qaratadi.

Arastu Aflotunning o'g'il bolalarni tarbiyalash huquqini davlatning funksiyasiga berish lozim, – degan fikriga qo'shilmaydi. Chunki unda tarbiya sifati pasayadi deb hisoblaydi. Arastu g'oyasidan xulosa chiqaradigan bo'lsak, oila yaxlitligini buzilishi, o'g'il bola shaxsini rivojlanishi uchun his-tuyg'usi darajasida muhim bog'lanishlarini buzilishiga olib keladi deb hisoblagan. Oiladagi axloqiy tarbiya, tarbiya nazariyasining asosi bo'lib hisoblanadi. Er va xotin har bir ishda oqilona yondashishlari, oilaning maqsadi xo'jalik, bolalar va uning tinchligi, xotirjamligi bo'lmog'i lozim.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rta asrlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu davrda "patriarxal nazariya" hukmronlik qilgan. Yevropa erkaklar hukmronligini tan olgan. Oilaviy qadriyatlarni tushunish va idrok etish diniy o'ziga xoslik bilan bevosita bog'langan bo'lgan. Faylasuflarning asarlari oilaviy qadriyatlarni shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan.

O'rta asrlar sharqida, musulmonchilikda oila har doim tarbiyaning muhim ijtimoiy instituti hisoblangan. Bolalar tarbiyasi Alloh va jamiyat (jamo'a) oldidagi majburiyat deb qaralgan va uni oila boshlig'i amalga oshirgan. Aynan oilada itoatkorlik, kamtarlik, ishonch kabi his-tuyg'ular

## PEDAGOGIKA

shakllantirilgan. Islomda oila tarbiyasida o'ziga xoslik ya'ni o'g'il bolalar va qizlar tarbiyasi ajratilgan holda olib borilgan.

Sharq mutafakkirlari asarlariga murojaat qiladigan bo'lsak, pedagogika nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ahamiyatga molik g'oyalarni uchratamiz.

Sharq va G'arbda keng tanilib "Shayx ur-ra'is" nomiga sazovor bo'lgan Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Tib qonunlari" va "Tadbiri manzil" asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid pedagogik va psixologik qarashlari bayon etilgan. Uning oilani ijtimoiy institut, shaxslararo munosabatlar manbai, o'zaro ta'sir o'tkazishning qulay ijtimoiy muhiti, milliy an'analar ta'sirchanligi, taqlid, yuqish fenomenlari negizi ekanligi to'g'risidagi mulohazalari to'hozirgi davrgacha o'z kuchini yo'qotgani yo'q. U bola tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlarini ta'kidlaydi. Tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tana jazosidan farqli o'laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan.

Ibn Sino oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg'usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta'sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino bola yomon xarakter xislatning egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, - deb yozadi. Uning ta'kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig'imi yoki jamiyatning oddiy bir a'zosimi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo'yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy ehtiyojdir.

XII asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" - "Saodatga boshlovchi bilim" - kitobida va undan keyingi qator asarlarida o'zining etika va oilaviy hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Uning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir.

Abu Hamid al-G'azzoliy esa o'g'il bolalarni yoshligidan kamtarlik, kamsuqumlik va adolatlilik ruhida tarbiyasi shakllantirilsa, ular o'z xohishlarini tiyishni o'rganadilar, degan. Shu bilan birga al-G'azzoliy ideal va tarbiyaga taqlid qilish orqali o'g'il bolalarda ma'naviy sifatlarni tarbiyalash zarurat ekanligiga e'tiborini qaratish lozim deb hisoblagan.

Pandnoma tarzida yozilgan Kaykovusning "Qobusnoma" falsafiy-didaktik asarining "Farzand parvarish qilmoq zikrida" bobida ota-onaning bola tarbiyasiga oid vazifalari yoritilgan. Shuningdek, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarning asarlarida insonning barkamolligi muammosi, o'g'il bola shaxsini takomillashtirishda milliylik va ijtimoiy muhit, oilaning roli nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Buyuk mutaffakkir Abdulla Avloniyning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar, shaxslararo munosabat g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy "Shariati islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak talarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur", -deydi. Olim "...tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim", - deb oilaning bola tarbiyasidagi roli birlamchi ekanligini ta'kidlaydi.

Ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat ham bola tarbiyasida oila eng asosiy rol o'ynashiga e'tibor qaratadi va quyidagi fikrni keltiradi: "Bolalar suvga o'xshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar".

Ushbu keltirilgan fikrlar va Islom dinidagi boshqa ko'pgina dalillar oilada bola tarbiyasiga bag'ishlangan bo'lib, bola tarbiyasi oilaning eng zarur majburiyatlaridan biri ekanligiga shakshubha qoldirmaydi.

Bundan sharq mutafakkirlari ham pedagogik g'oyalarni rivojlanishida ahamiyatli ta'sir ko'rsatishganligi ko'rinib turibdi. Ularni oilaning roli, bola tarbiyasida ma'naviyatni shakllantirish hamda tarbiya haqidagi g'oyalari va shu kabi jihatlar keyinchalik G'arbiy Yevropa tomonidan qabul qilingan.

Yangi davr ham oila jamiyatning yacheykasi sifatida va uning boshlig'i erkak ekanligiga urg'u berilgan holda davom etdi. Fransuz mutafakkiri J.J.Russo (1712-1778): "Barcha jamiyatlarda yagona tabiiy eng qadimgi shakl – oiladir. ... agar o'rinli bo'lsa, oila siyosiy jamiyatning dastlabki namunasidir: ota – sarkarda namunasida; bolalar – xalq namunasida..." – deb bejizga ta'kidlamagan.

"Oiladan tashkil topgan jamiyat, tabiiyki insonlarda bo'ladi. ... turg'un hududga o'rtnashgan oila, yashash vositalarini oson o'zlashtirib, keyinchalik ko'payib, qabila bo'lishi mumkin", – degan edi J.A.Kondorse (1743-1794). U oilani patriarxal tarzda tasavvur etgan, "patriarxal nazariyaga" qarshi chiqmagan.

Mazkur konsepsiyadan mafkurachilar oila-nikoh munosabatlarida, xususan, xususiy mulkni aniqlashda ham foydalana boshlaganlar.

Rus faylasufi I.A.Il'in o'z asarlarida oila institutining paydo bo'lishi, ijtimoiy tizimda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanishi shart-sharoitlarini keltiradi. Inson va jamiyat hayotida oilaning ahamiyatini ifodalab, uni "inson madaniyatida dastlabki sath", sevgi, ishonch va erkinlikka asoslanishi lozim bo'lgan muqaddas ittifoq deb atagan. Agar ota-onalar oilada o'z bolasini o'qitib, o'rgatmasalar, u holda, bola to'g'ri va ijodiy rivojlana olmaydi, deb hisoblagan.

Nemis teologi Tolukning "dunyo bola xonasidan turib boshqariladi", – degan fikriga urg'u berib, "...dunyo nafaqat bola xonasidan quriladi, balki undan turib vayron ham qilinadi, bu yerda nafaqat qutqarish yo'llari yotqiziladi, balki halokat yo'llari ham yotqiziladi", – degan edi. Mutafakkir: "...oilaning asosiy vazifasi bolalarni ma'naviy tarbiyalashdir", – deb hisoblagan.

Zamonaviy talqinli lug'atlarni olib o'rganganimizda quyidagi talqinlarga duch kelamiz. "Oila" atamasi – "shaxsiy hayotni tashkil etishning muhim shakli sifatida jamiyat yacheykasi bo'lib, u er-xotinlik va qarindoshlik bog'lanishlariga asoslanadi". Shunday qilib, mazkur falsafiy ta'rifni tahlil etib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin, oila – er va xotin, ota-onalar va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindosh-urug'lar bilan birga istiqomat qiluvchi, xo'jalik yurituvchi ko'p tomonlama munosabatlarga asoslanadi. Shu bilan bir vaqtda mazkur muammolar to'liq hajmda tadqiq etilgan deb ayta olmaymiz, bu yerda bahsli savollar ko'pligicha qolmoqda. Oila tushunchasiga nisbatan shakllangan qarashlar bu – uzoq tarixiy jarayon mahsulotidir.

"Oila" atamasi o'zining uzoq mavjudlik tarixiga ko'ra o'zgarib kelgan, bu insoniyatning rivojlanishi, jinslar o'rtasidagi munosabatlarni jamiyat boshqaruv shaklini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan. Bu shakllarning ba'zilar alohida qabilalarga xos bo'lgan bo'lsa, boshqalari esa keng tarqalishga egadir. Ularning umumiyliigi – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy aniq rivojlanish darajasiga bo'ysunishidir.

O'tgan tarixiy davr davomida "oila" atamasi muhim o'zgarishlarga ega bo'ldi, lekin oilaning ikkita tavsifi o'zgarishsiz qoldi. Birinchidan, oila – jamiyatning ijtimoiy instituti, mos ravishda jamiyat oilaning sifati va mazkur institutning tashkil etilishidan manfaatdordir. Ikkinchidan, oila – kichik ijtimoiy guruh bo'lib, o'z navbatida, mazkur guruh a'zolari hayoti mobaynida uni tashkil etilishidan manfaatdordirlar.

Oila rivojlanishida ijtimoiy natija ana shu ikki jihatning kesishishi hisobiga uning uzoq muddat davom etishiga erishiladi. Oilaning asosiy maqsadi – albatta, ma'naviy me'yorlar, qadriyatlar, qonun va qoidalarni hisobga olgan holda, yangi avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash orqali inson avlodini davom ettirishdan iboratdir. Oila ijtimoiy institut sifatida jamoaviy munosabatlar va tarkiblar tizimida jalb etilishi va ishtirokchisiga aylanishi lozim.

Oilaviy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat oila muhitida ajratilishi kerak. Undagi muloqotlar nafaqat oddiy ma'lumotlar almashinuviga, balki bolalar va nabiralarga ma'naviy tajribalarni taqdim etishga, axloqiy qadriyatlarni, fuqarolik ong, munosabat va ishonch, harakatlanish, davlat ishlari va o'z ishiga nisbatan moslikni tushunishni shakllantirishga imkon bergan. Shunday qilib, oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida turmush tarzining tayanch qadriyatlaridan biri sifatida turg'un munosabatlar shakllangan.

Agar oila va boshqa ijtimoiy institutlar birgalikda faoliyat olib borsa, shuningdek, oila va mahalla ijtimoiy instituti hamkorlikda faoliyat yuritrsa, oilaviy munosabatlarni shakllantirish muvaffaqiyatli yechim topishi mumkin. Shundagina ta'lim muassasalari ham har doimgidek, tarbiya jarayonida, bola va ota-onalarning ijtimoiy sharoitda real harakatlarini ta'minlovchi ijtimoiy institutlardan biri bo'lib qoladi.

T.A.Egamberdiyevaning fikricha, insonni tarbiyalash madaniyati ikkita samarali institutni kashf etgan – maktab va oila. Oila irsiyat darajasida o'tmaydigan harakatlarni shakllantiradi. ... oila qator muhim holatlarda maktab oldida ustunlikka ega: avlodlar almashinuvining mavjudligi, oilaning alohida vakili noyobligini saqlagan holda yagonalik hamda yaxlitlik... va shu kabilar. Oila bu shunday maskanki, unda muhimligi jihatidan ta'lim muassasasidan qolishmaydigan keyingi avlodga jamiyatda harakatlanishning o'ziga xos me'yorlari shakllantiriladi.

#### XULOSA

Tadqiqotlar tomonidan shu narsa aniqlandiki, oila tarbiyasi vazifalarining muvaffaqiyatli yechimini topish, turmushda uchraydigan hayotiy qadriyatlar ma'nolarini o'zlashtirish faqatgina oila va boshqa jamoatchilik institutlari bilan birgalikda bo'lishi mumkin. Bunda ta'lim muassasasi doimiy tarzda tarbiya jarayonini hamda bola, ota-ona va sosium kabi subyektlarni o'zaro harakatlarini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib qolaveradi. Taklif etilayotgan yondashuvni ta'minlovchi qadriyatli tushuncha sifatida shaxsning qayg'urishi, mas'uliyatlilik, mehnatsevarligi, mustaqilligi kabilar qaraladi. Ularning bajarilishi jamiyatdagi betartibliklarni oldini oladi. Inson mavjudligining hayotiy izini nafaqat biologik yo'lini kuzatish orqali, balki uning muomalasi, ta'limi, to'plangan tajribani o'tkazishi, ya'ni kattadan kichikka taqdim etish yo'li orqali ham kuzatish mumkin.

Shunday qilib, inson oilada va oila yordamida inson bo'lib shakllanadi. Oila va inson uzviy bog'liqlikda bo'lib, uning oiladan ayri holda mavjudligi shartlidir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped...fan...dokt. ... diss. – Toshkent: UzPFITI, 1998. – 288 b.( 1. Nishonova S. Education of a well-rounded person in the development of pedagogical thought of the Eastern Renaissance: Ped...fan...doct. ... diss. - Tashkent: UzPFITI, 1998. - 288 p.)
2. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.( 2. Pedagogy encyclopedia. Volume I / compilers: team. // Tashkent. "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2015. - 320 p.)
3. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1997. – 93 b.( 3. Rahimov S. Abu Ali ibn Sina about education and upbringing. - T.: Teacher, 1997. - 93 p.)
4. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 354 b.( Khairullayev M. Renaissance and Eastern thinkers. - T.: Uzbekistan, 1997. - 354 p.)
5. Xayrullayev M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida / Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. 1 - kitob. T.: O'zPFITI, 1992. -110 b.( Khairullayev M. Thinkers of the past about education / Folk pedagogy is the basis of human development. Book 1. T.: UzPFITI, 1992. -110 p.)
6. Fitrat, Abdurauf. Oila. – T.: Ma'naviyat, 1998. – 112 b.( Fitrat, Abdurauf. Family. - T.: Ma'naviyat, 1998. - 112 p)
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.( Abdulla Avloni. Turkish culture and ethics. - T.: Teacher, 1992. - 160 p.)
8. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(8).
9. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 68-75.( Aripov, Sh. O. (2022). Legal explanation of some obligations and duties of husband and wife in preparing young people for family. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 68-75.)
10. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 311-313).
11. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(26), 335-338.( Olimovich, A. S. (2023). CONVEYING THE CAUSES OF DIFFERENCE BASED ON RELIGIOUS AND SECULAR KNOWLEDGE IN THE PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR THE FAMILY. *CREATIVE TEACHER*, 3(26), 335-338.)
12. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(4), 4-8.
13. Aripov Shokirjon Olimovich [HISTORY OF DEVELOPMENT OF FAMILY RELATIONS](#) International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) is a monthly peer reviewed international journal. 2023/12/1